

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14784498>

AVTOMOBIL YO‘LLARINI ARXITEKTURA BADIY BEZASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Amanova Nozima Shavkatovna

Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchi

noz.amanova@gmail.com

Annotatsiya: Respublikaning har bir mintaqasidagi iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, xalqaro tajribalar asosida mamlakatimizga xos milliy standartlar ishlab chiqish uchun avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini oqilona tashkil etishni taqozo etmoqda.

Kalit so‘zlar: avtomobil yo‘li, magistral yo‘llar, ko‘kalamzorlashtirish, badiiy bezash, kompozitsiya, arxitektura, landshaft, jihozlash, dizayn.

Abstract: Based on the climatic conditions in each region of the republic, it is necessary to rationally organize scientific and research work in the field of road improvement and landscaping in order to develop national standards specific to our country based on international experience.

Keywords: highway, highways, landscaping, artistic decoration, composition, architecture, landscape, equipment, design.


Аннотация: Республиканский хар бир минтакасидаги иклим шароитларидан келиб чикиб, халқаро таджрибалар асосида мамлакатимизга хос миллий стандартлар ишлаб чиқиш учун автомобиль йолларини ободонлаштириш ва ко‘каламзорлаштириш соҳасида илмий-тадқиқот ишларини оқилон ташкил этишини тақозо этмоқда.

Ключевые слова: автомагистраль, автомагистрали, озеленение, художественное оформление, композиция, архитектура, ландшафт, оборудование, дизайн.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimiz avtomobil yo‘llari bo‘yi hudularidan foydalanuvchi aholiga qulayliklar yaratish, mamlakatimizning turizm salohiyatini oshirish shuningdek, yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha zamonaviy talablar bilan chambarchas bog‘liq holda avtomobil yo‘llarini hududiy arxitektura-badiiy tuzilishi va landshaft dizayni qismida zamonaviy yondashuvlarni shakllantirish muhim masala hisoblanadi. Ma‘lumki 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga «...80-maqсад: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirish. 81-maqсад: O‘rmonlar maydonini kengaytirish...» kabi dolzarb masalalar kiritilishi dissertatsiya ishini dolzarbligini namoyon etadi.

Mamlakatimizda aholi va transport vositalari sonining ortishi (1.1-rasm) avtomobil yo‘llarida harakat jadalligini ham ortishi bilan yo‘l harakati xavfsizligini yomonlashuviga hamda atrof-muhitga chiqadigan zararli gazlar va transport shovqinini ortishi kabi salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi.




1.1-rasm. Doimiy aholi va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalari soni statistikasi


Ushbu salbiy ta‘sirlarni oldini olish va kamaytirishda avtomobil yo‘llarini hududiy arxitektura-badiiy tuzilishi va landshaft ishlari texnologiyasini

takomillashtirishni talab etadi. Bunda avvalo avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish masalasi birinchi navbatda dolzarb hisoblanadi. Obodonlashtirish atrof-muhitni tiklovchi tizim sifatida havo tarkibini va uning ifloslanish darajasini, avtomobil yo‘llari bo‘ylab iqlim xususiyatlarini tartibga soladi, shovqin omilining ta‘sirini kamaytiradi va odamlarning estetik idroki manbai hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab 2023 yilda 1200 km avtomobil yo‘llarida 606 726 dona, 2024 yilda 1028 km avtomobil yo‘llarida 680 000 dona manzarali daraxt va butalar ekildi. 2023 yilda ko‘kalamzorlashtirilgan avtomobil yo‘llari va ekilgan daraxt va butalar soni hududlar kesimida quyidagi 1.2 va 1.3 rasmlarda keltirilgan.



1.2-rasm. Hududlar kesimida ko‘kalamzorlashtirilgan avtomobil yo‘llari uzunligi



1.3-rasm. Respublika bo'yicha 2018 yilda ekilgan daraxt va butalar soni

Yuqoridagi daraxt va butalarning deyarli barchasi avtomobil yo'llari bo'ylab qatorli usulda ekilgan bo'lib, arxitektura-badiiy bezash nuqtai nazaridan assortiment ko'rinishadi ekilmagan.



1.4-rasm. Payariq tumanida joylashgan 4R-48 "Zarafshon traktining o'ng sohili" avtomobil yo'lining 28-29 km bo'lagida ekilgan manzarali daraxtlar.

**Odingi holat****Hozirgi holat**

1.5-rasm. Bulung‘ur tumanida joylashgan xalqaro ahamiyatdagi M-39 “Almati-Bishkek-Toshkent-Termiz” avtomobil yo‘lining 1053-1061 km bo‘lagida ekilgan manzarali daraxtlar

Hududlar bo‘yicha ekilayotgan daraxt turlari joyning tabiiy-iqlim va geografik joylashuviga mos bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi hududining xarakterli xususiyatlaridan biri – fizik-geografik sharoitlari bir-biridan keskin farq qiluvchi geomorfologik belgilarga egaligidir. O‘zbekiston Respublikasi hududida barxanlar, cho‘llar, dashtlar, sho‘rxoqlar, daryolarning qayirlarida o‘sgan to‘qayzor qamishzorlar, muzliklari bor tog‘lar hamda tropik jazirama va shimol sovug‘i – bularning barchasi o‘z o‘rnida va o‘z vaqtida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Avtomobil yo‘llarini arxitektura-badiiy bezash uchun tut, qayrag‘och, jiyda, archa turlari, ko‘k terak, koliforniya teragi, kashtan, chinor, tol, kashtan, yapon soforasi, qrim qarag‘ayi, eman, virjin archasi, tunberg zirki, oddiy bryuchina, Yapon normushkisi, shamshod, oddiy kalina, ipak akatsiya, shumtol, qarag‘ay, akatsiya, magoniya, gibiskus, forzitsiya kabi daraxt va buta turlaridan foydalanish tavsiya

etildi. Umumiy xulosa qilib aytganda avtomobil yo‘llaridagi ajratuvchi tasma va yo‘l bo‘yi hududlarni badiiy-bezash orqali ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, ekologik muammolar, xavfsizlik kabi bir qator muammolarni hal etish bilan bir qatorda foydalanuvchi (haydovchi, yo‘lovchi, piyoda)lar estetik zavq berish orqali ulrni ma’daniy hordiq chiqarishini ham ta’minlash mumkin ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. MShN 33-2008 Avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish bo‘yicha yo‘riqnoma. – Toshkent, 2008. - 145 s.
2. Aslidin Urokov. Integrated approach to greening of road cars taking into account regional conditions of the republic of Uzbekistan. Transport: nauka, texnika, upravlenie № 3 2020 g. Str 56-59.
3. “Avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish va arxitektura-landshaft konstruksiyalash, obodonlashtirish tizimini loyihalash, ularni tashkil etish va saqlash” bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2018. 255 bet.
4. Sadikov I.S., Azizov K.X., O‘roqov A.X. Avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish va jihozlash. Darslik. - Toshkent, 2018. - 316 b.
5. I.S.Sodiqov, A.X.O‘roqov, B.K.Kasimxadjaev, E.T.Berdiev, M.Z.Xolmurotov. Avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish tizimini takomillashtirish muammolari. O‘zbekiston Agrar fani Xabarnomasi. №2(76) 2019 yil. 113-121 betlar
6. A.X.O‘roqov. Avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish usullari. O‘quv qo‘llanma. Transport. Nashriyoti, T.: 2020, 128 bet.